



ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA ASARLARINING BUGUNGI YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Abdumajidov Rustamjon Baxtiyor o‘g‘li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat

texnika universiteti assistenti

Yusupov Saidabrор Ravshan o‘g‘li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat

texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi, asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari, XX asr siyosatining Qodiriy asarlarida bayon etilishi, o‘sha davr siyosati xalqning ahvoli, Qodiriyning millatni uyg‘otish yo‘lidagi harakatlari haqida ma’lumotlar keltirildi.

Kalit so‘zlar: Romannavislik, Abdulla Qodiriy she‘rlari, “O‘tkan kunlar”, “Mexrobdan chayon” singari tarixiy asarlari, jurnallardagi faoliyati, Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li, “Obid ketmon” qissasi.

O‘zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida ulkan hissa qo‘shgan va "O‘zbek romannavisligining otasi" deb nom chiqargan san’atkor A.Qodiriy (Julqunboy) 1894 yilning 10 aprelida Toshkent shahrining Beshyog‘och dahasida bog‘bon oilasida dunyoga



keladi. Otasi Qodir bobo savdo ishlari bilan, keyinchalik, keksaygach, bog‘bonlik bilan shug‘ullangan.

A. Qodiriy o‘z tarjimai holida shunday yozadi: “Boshda boy oilada tug‘ilishimni yoki kambag‘al oiladami, bunisini bilmayman, ammo yoshim 7-8 ga yetgach, qornim oshga to‘ymaganidan aniq bildimki, besh jonning tomog‘i faqat 80 yoshlik bir chol otamning mehnatidan, ya’ni bog‘ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar edi. Agar bahor yomon kelib, bog‘ mevalari, ofatga uchrab qolsa, biz ham ochlikka duch kelib, qishi bilan javrab chiqar ekanmiz”.

Binobarin, yozuvchining yoshlik chog‘lari biroz ayanchli kechadi. Shuning uchun ham u yoshlik kezlari boy va savdogarlar qo‘lida xizmat qilib, etarli darajada tahsil ko‘ra olmaydi. Shunga qaramasdan A.Qodiriyning bilimiga, adabiyotga qiziqishi aslo so‘nmaydi. U dastlab eski usuldagi maktabda, so‘ng 1908-1912 yillarda rus tuzem maktablarida o‘qib, uni a‘lo baholarga bitiradi. Abdulla maktabni bitirgach 1912 yili Rasulmuhammad boyga prikazchik ya’ni mirzo bo‘lib ishga kiradi. Bu savdogar boy insofli-adolatli ziyolilarni juda hurmat qilar edi. Abdulla boyning xonadonida va savdo do‘konida yashab juda ko‘plab ana shunday ilg‘or fikrli ziyolilar bilan tanishadi va ulardan savdo ishlarini o‘rganadi. 1914-yili u boyning qizi Rahbaroy bilan turmush qurib, undan ikki o‘g‘il, ikki qiz ko‘radi, ular Nafiza, Adiba, Habibullo, Ma’sudlar bilan osuda hayot kechiradi. Yosh yozuvchining ilk ijodiy faoliyati Ham shu davrga 1913-1914 yilarga to‘g‘ri keladi. U shu kezlarda chiqib turgan “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallar bilan muntazam tanishib borib, o‘zi ham keyinchalik ularga kichik-kichik xabar va maqolalar yozib turadi. (Aslini olganda Abdulla mazkur gazeta va jurnallarni boyning qaramog‘idan olib o‘qib turadi).

A.Qodiriy ham ko‘pchilik yozuvchilar singari ilk ijodida she‘riyatga qiziqadi. Uning 1915-yilda “Oyna” jurnalida e‘lon qilingan “Axvolimiz”, “Millatimga”, “To‘y” kabi she‘rlarini bunga misol qilib keltirish mumkin. Muallifning mazkur she‘rlari va ayniqsa,



“Juvonboz” hikoyasi, “Baxtsiz kuyov” fojiasi, bevosita Behbudiyning “Padarkush” fojiasiga kelib chiqib yozilgan bo‘lib, ularda jaholatga, ma’rifatsizlikka qarshi kurash va xalqni ilmga, madaniyatga chaqirish ustun keladi. Xususan, muallif jadidchilik ruhi bilan sug‘orilgan “Axvolimiz”, “Millatimga” she’rlarida eski yaramas odatlarga: ichkilikbozlik, foxishabozlik qimorbozlik, bedanabozlik kabi illatlarni qattiq qoralab, g‘aflatda qolgan millatni va ayniqsa, uning kelajagi bo‘lgan yoshlarni himmat kamarin bog‘lab, g‘ayrat bilan mehnat qilishga chaqiradi. A.Qodiriyning oktyabr inqilobidan keyingi hayoti, faoliyati vaqtli matbuot bilan yana Ham uzviy bog‘lanadi. Chunonchi, u 1919 yili “Oziq ishlari” gazetasiga muharrirlik qiladi. “Inqilob”, “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq” gazetalarida adabiy hodim va muxbir bo‘lib ishlaydi.

1919-yildan A.Qodiriy “Mushtum” jurnalining tashkilotchilaridan biri sifatida maydonga chiqadi, boshqacha aytganda jurnalni yo‘rgaklab, beshigini tebratgan, Hatto unga “Mushtum” degan nomni ham topib qo‘ygan adibdir. Qodiriy jurnalni tashkil etish bilan chegaralanib qolmay, balki unga jon, qon ham qo‘shadi, ya’ni o‘zining 1923-1924 yillarda yozgan “Toshpo‘lat tajang nima deydi”, “Kalvak maxzumning xotira daftaridan” turkumidagi satirik hikoyalari bilan bir necha yillar davomida jonlantirib, xalqning sevimli jurnaliga aylantiradi.

“Toshpo‘lat tajang nima deydi?” asarining qaxramoni Toshpo‘lat xarakteri ham ziddiyatli. U bolaligida yaxshi tarbiya ko‘rmagan, maktabda yolchitib bilim olmagan, omadsiz odam. U gunoh ishlardan - nashavandlik, qimorbozlik, bezorilikdan ham toymaydi. Ma’rifatsizlik tufayli u ko‘p hollarda oddiy turmush chig‘alliklarini echa olmay, hayotdagi yangiliklar mohiyatini anglab eta olmay qiynaladi, kulguli, tang ahvolga tushib qoladi. Xususan, soliq qog‘ozining, umuman soliq siyosatining ma’nosiga tushunmay dovdirab, baboq xo‘rozni quvib maktabga kirib qolishi, u yerdagi yangicha ta’lim-tarbiya, o‘quvchilar haqida o‘zicha badbin xayollarga borishi, shu kabi hatti-harakatlari bilan chindan ham o‘z-o‘zini fosh etadi. Toshpo‘lat muallif ta’riflaganday, ishsiz, biri ikki



bo'lmay, yomon yo'llarga kirib qolib tajangligi tutgan chapani. 20-yillardagi murakkab, og'ir sharoit uni shu axvolga soladi. U o'zini har ishga uradi, do'kondorlik qiladi, tegirmonda ishlaydi, dehqonchilikka qo'l uradi, mardikorchilik qiladi - biroq buning bilan uning kosasi oqarmaydi.

Toshpo'lat mana shunday nohaqliklarni ko'rganda jini qo'ziydi, shunday og'ir zamonda kambag'alning boshini silash o'rniga, unga yomonlikni ravo ko'radigan olifta mansabdorlar ko'ziga balo bo'lib ko'rinadi: o'ziga o'xshaganlarning faqir yashashiga faqat shular aybdor deb biladi. Shuning uchun ham ularga duch kelganda asabiylashadi, bezoriligi tutadi, o'zini ovutish uchun nashavandlikka beriladi.

A.Qodiriy jurnalistika sohasidagi malakasini oshirish maqsadida 1924-1925 yillar orasida Moskvadagi (Valeriy Bryusov nomidagi) oliy jurnalistika institutiga kirib o'qiydi. Shu tariqa yozuvchi 20 yillar orasida "Qodiriy", "Julqunboy", "Toshpo'lat", "Kalvak maxzum", "Dumbul", "Avsar", "Shig'ay" kabi taxalluslarda qizg'in va barakali ijod qiladi.

A.Qodiriy yirik hikoyanavis, birinchi o'zbek romannavisi sifatida Ham shuhrat qozongan sanatkordir. Adib 1917-1918 yillardan boshlab "O'tgan kunlar" romani uchun material to'plashga kirishadi. 1922 yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etiladi. 1925 yilda "O'tgan kunlar" alohida-alohida uch bo'lim holida, so'ng 1926 yilda kitob bo'lib nashr etiladi. Oradan ikki yil o'tib 1928 yilda yozuvchining ikkinchi tarixiy romani "Mehrobdan chayon" romani nashr etiladi. 1934 yilga kelib esa muallifning qishloq xo'jaligi mavzusiga bag'ishlangan "Obid ketmon" qissasi yaratiladi. A.Qodiriy "Amir Umarxonning kanizi", "Nomoz o'g'ri", "Daxshat" kabi romanlar yaratish orzusida edi. Ammo bevaqt o'lim bu orzularning chiqishiga imkon bermadi.



Ko'p asrlik o'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda nasrga nisbatan nazm necha asrlar davomida rivojlanib, sayqal topib katta tajribaga, boy an'anaga ega bo'lib kelganligi guvohi bo'lamiz.

XX asrning boshlariga kelib, yangi davr adabiyot oldiga ham yangi vazifalarni ko'ndalang qo'ydi. Bu davrga kelib, uyg'onish davriga kelib poeziya janrining o'zi bilan cheklanib qolish mumkin emas edi albatta. Turmushni, yangi hayotni, yangi voqealikni, yangi insonni, uning butun ichki olamini keng va har tomonlama aks ettirib berish uchun poeziya bilan bir qatorda proza, dramaturgiya singari adabiyotning yirik janrlari, shakllari ham zarur edi. Buni hayotning o'zi taqozo etdi. Xullas 20-yillarga kelib o'zbek adabiyotida proza janrini yaratish uchun yangi harakat boshlanadi. Bu harakatni jonlantirishda ko'pchilik yozuvchilar qatori Qodiriyning ham xizmatlari katta ekanligini aloxida qayd etmoq kerak. Bu o'rinda adibning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarini eslab o'tmoq kifoya. Romanni o'zbek o'quvchisi butun turkiy tilda so'zlovchi xalqlarning zukko kishilari hatto bayramdek kutib oldilar. Roman tillarda dostonga aylandi. Qo'ldan-qo'lga o'tib o'qildi.

"O'tgan kunlar" romanning ma'no-mundarija doirasi aslida ancha keng. Unda xilma-xil ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida eng muximi -yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir. "O'tgan kunlar" romaniga qadar ham, asar yozilgan paytlarda va undan keyin ham hech kim o'tgan asrda millat, milliy davlat taqdiri uchun hayot-mamot ahamiyatiga molik tarixiy hodisalarni, o'lkaning mustaqillikdan mahrum bo'lib, mustamlakachilar oddida taslim bo'lishga olib kelganlarni Qodiriychalik chuqur, ta'sirchan badiiy tadqiq etgan emas. Binobarin, yurtning mustaqilligi, birligi, totuvligi, tinchligi masalasi romanning asosiy manosi darajasiga ko'tarilgan. Asarning markaziy qahramonlaridan Otabek va Yusufbek Hojilar shu yurtning istiqloli, farovonligi, osoyishtali yo'lga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir.



Abulla Qodiriy millat ahvolini o'nglash uchun yoshlar g'ayratidan, hammaslamlari bo'lgan ziyolilar shijoatidan umid qiladi. Millatni ulug'lash, ma'rifatni ulug'lash, ilmga davat-bular barchasi jadid davri adabiyotining asosiy motivi bo'lib hisoblangan. Abdulla Qodiriy asarlarining har bir qismi o'zbek mumtoz adabiyoti uchun eng bebaho yodgorlik hisoblanadi. Adib O'zbek tili kambag'al emas, o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Shuningdek, insonda husn bo'lsa-ku, aql, zakovat bo'lmasa, u qog'ozdan yasalgan gulga o'xshaydi deb yozilgan fikrlarini nafaqat o'sha zamon uchun hozirgi davr uchun ham muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ahosi tarkibini yoshlar tashkil etishini hisobga olsak ularning ma'naviyatini kengaytirish, turli xil buzg'inchilik g'oyalar va oqimlarga kirishini ularning ongidagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirishda Abdulla Qodiriyning asarlari o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda butun dunyo bizning qanchadan qancha buyuk adiblarimiz bobakolonlarimiz borligini bilmoqda. Adabiyot, san'at hech qachon mamlakat, davlat, tanlamaydi mohirona yozilgan asarlar shuning uchun dunyo bo'ylab turli tillarga tarjima qilinadi. Ilmli zukko yoshlar mamlakat kelajagining poydevorlari hisoblanadi.

Bugungi kunda yoshlar siyosati davlat siyosati darajasiga tenglashtirilayapti. Yoshlarni har tomonlama yetuk malakali kadr bo'lishlari uchun hamma sharoitlar yaratilmoqda. Biz yoshlar o'z tariximizni adiblarimizni ijodini to'liq o'rganishimiz kerak buning uchun mehnat qilishimiz kerak. Shunda buyuk kelajakka albatta bizniki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. Toshkent 2008
2. <https://daryo.uz/2020/04/10/bu-romanni-bir-marta-emas-besh-marta-oqish-kerak-10-aprel-abdulla-qodiriy-tavallud-topgan-kun>



3. <https://arboblar.uz/uz/people/kadyri-abdulla>

4. Norboyeva Zarina, Abdulla Qodiriy ijodining yoshlar hayotida tutgan o‘rni. Vol. 6 No. 3 (2023): PEDAGOG